

SO‘Z BOBIDA NAVOIYGA IZDOSHLIK

Tangriyeva Umida Allaberganovna

Urganch davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining dahosi Alisher Navoiy va unga izdosh bo‘lgan yetuk shoir Muhammad Rizo Ogahiy ijodida so‘z sehri, ularning so‘z xususidagi ijtimoiy qarashlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ijod, she‘riyat, fikr, didaktika, qiyosiy tahlil, til va nutq masalalari, she‘riy san‘atlar, sinonimlik, ijtimoiy-siyosiy mulohazalar, badiiylik.

So‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy o‘z asarlari bilan turkiy til qaddini qanchalar yuksakka ko‘targani barchamizga ma‘lum. Uning hayoti va ijodi zamondosh hamda undan keyingi turkiyzabon adabiyot vakillari uchun har tomonlama ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi Navoiy ijodida bo‘lgani kabi Muhammadrizo Ogahiyning so‘z xususidagi ijtimoiy qarashlari uning lirik asarlarida goh didaktik, goh falsafiy tarzda bayon qilingan. Sharqda so‘zni durga qiyoslash, uning qadrini benihoya baland tutish haqida ko‘plab fikrlar bayon qilingan. Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida bayon qilgan bir bahs munosabati bilan Abdurahmon Jomiyning “Suxan dur astu taalluq ba go‘shi shah dorad” – so‘z dur (bahs Dehlaviyning bir baytdagi so‘z “dur” yoki “xun” – “qon” ekani haqida edi) dir va shoh qulog‘iga tegishlidir, deb hakamlik qilgani haqidagi hikoyat juda ibratlidir.

Muhammadrizo Ogahiy lirikasida ham “so‘z durri” xususida badiiy timsollar vositasida chuqur ijtimoiy fikrlari ko‘p uchraydi. Jumladan,

Nazokat maxzanida og‘zidur durju adam, lekin,



Socharda soʻz durini qilgʻusi oni namoyon lab.

Shoir nazdida soʻzning durligi yor ogʻzini (qimmatbaho gavharlar solinadigan quticha) ga aylantiradi. Inson koʻngli nazokat maxzani (xazinasini) boʻlishi uchun fikri ezgu, soʻzi dur boʻlmogʻi lozim.

Shoir nazdida koʻngildan chiqqan soʻzning borar manzili ham koʻngildir. Agar soʻzning masdari – yoʻnalgan oʻrni, yaʼni koʻngil pok boʻlsagina, koʻproq koʻngillarni ola biladi. Boshqacha qilib aytganda, soʻzning umri masdari naqadar pokligiga bogʻliq. Bu misralar goʻya mumtoz adiblarimizning ijodiyoti umriboqiyiligi sirini ochib beradi. Ogahiy nazarida soʻz qimmatini anglash uchun insonga pokiza tiynat va tabiat bilan birga kuchli ilmiy salohiyat, teran tafakkur zarur:

Ogahiy soʻzin musallam tutmasa hosil netong,

Yoqmagay bu jahlgʻa gar desa paygʻambar hadis.

Bizningcha, baytdagi ”hosil” soʻzni ”hosid” (hasad qiluvchi), ”bu jahl”ni esa Bu Jahl (islom tarixidan maʼlum Abu Jahl) tarzida oʻqigan maʼqul. Ana shunda misra mazmuni yanada teranlashadi: 1. Abu Jahlgʻa paygʻambar (SAV) hadis aytsa ham yoqmaydi. 2. Nodonligi (jahl - nodonlik) uchiga chiqqan (”abu” soʻzining qoʻshma soʻz yasashda vazifasini nazarda tutgan holda) odamga paygʻambar soʻz aytsa ham yoqmaydi. Shu maʼnoda ulugʻ soʻz sanʼatkorining ijodiga eng barakali taʼsir Alisher Navoiy merosi orqali boʻlgani shubhasizdir. Buni Ogahiy qalamiga mansub mavzuga doir bir necha baytlarni Alisher Navoiyning turli asarlarida uchraydigan soʻz, nutq masalasiga oid sheʼriy va nasriy satrlarini qiyoslash orqali ham koʻrishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning ”Hayrat ul-abror” dostonining ikkita bobi soʻz masalasiga bagʻishlangan. Dostonning 14-bobi ”Soʻz taʼrifidakim,...” deb boshlanadi.

Ogahiyning til va nutq masalalariga oid mulohazalari uning nagaqat maʼrifiy qarashlari, balki ijtimoiy-siyosiy, falsafiy dunyoqarashini oʻrganishda ham muhimdir. Jumladan, quyidagi baytda ”shoiri donoi davron” inson umrini behuda

o`tkazmasligi, inson manfaatiga xizmat qiladigan ishlar bilan band bo`lishi, Haq zikri bilan mashg`ul bo`lishi haqidagi g`oyasini ifodalaydi:

Til so`zi behudago`ylik sarfi bo`ldi umrlar,

Afzun ayla zikring shavqini har dam ango.

Baytda qo`llanilgan behudago`ylik aynan "behuda so`zlar aytish" ma`nosini anglatsa ham, uning tub mazmuni "behuda ish", "insonga manfaat yetkazmaydigan amal"dir. Shoir bir qadar achchiq, bir qadar iztehzoli bu fikrini mumtoz adiblar an`anasiga ko`ra o`ziga qarata aytadi. Bu holat mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodida ko`plab kuzatilib, ayni paytda aytilayotgan fikrning ma`rifiy, ijtimoy-siyosiy mulohazalarning muhimligini ham ko`rsatadi.

Ogahiyning so`z xususidagi qarashlari uning ma`rifiy pozitsiyasi bayoni, didaktikasi bilan uyg`unlashib ketadi. Shoir inson manfaatlariga, uning ruhiy kamoliga xizmat qilmaydigan so`zni *hashv* so`z (aynan ichi bo`sh, kovak so`z – behuda so`z) hisoblaydi. Hatto, yaratganga iltijo qilib, odamlarning yuziga qarab, ulardan bunday so`zlarni eshitmaslik uchun ko`zlari ko`r, quloqlari kar qilib qo`yishini, ya`ni bunday odamlar bilan hamsuhbat bo`lish va so`zlarini eshitish azobidan butkul qutqarishini so`raydi:

Boqib ulus yuzig`a hashv so`z eshitmakdin

Hamisha ko`r-u kar etgil ko`z-u qulog` mango.

Mumtoz o`zbek adiblari tilida "so`z" shaklida ikkita so`z bo`lib, biri genetik jihatdan asl turkiy bo`lib, hozirgi o`zbek adabiy tili va shevalarida keng iste`molda bo`lgan *so`z*, *nutq*, *gap*, *she`r*, *fikr* kabi ko`plab ma`nolarga ega. Qadimgi turkiy bitiklarda *sab* shaklida bo`lib, uning nutq ma`nosi ham ko`zga tashlanadi. "Kul tegin" bitiktoshining quyidagi o`rnida "*sab*" ning maslahat, umumiy mazmundan kelib chiqqan holda esa "*vasiyat*" ma`nosida ham anglash mumkin bo`ladi: "So`zimni tugal eshitgil, keyinimdagi xalqim, o`g`illarim, ittifoq, urug`, o`ngdagi beklar, chapdagi tarxonlar, uyg`ur beklar,..." Demakki, "sab" so`zi hozirgi ko`chma ma`nolarining ko`pchiligini qadimgi turkiy davridayoq kasb etgan. So`zning

Ogahiy ijodidagi ma'no qirralari xususida gapirishdan oldin shu shakldagi ikkinchi bir so'z haqida aytib o'tsak. So'z shaklidagi ikkinchi so'z kelib chiqishiga ko'ra forsiy bo'lib, aslida *so'xtan* – yonmoq, kuymoq fe'lining hozirgi zamon negizidir. So'zning ayni shu ma'nosi Xorazm shevalarida mavjud *xomso'z* (xom pishgan) so'zida ko'rinadi. Mumtoz o'zbek adiblari tilida, shuningdek, *dilso'z* (yurakni yoquvchi), *jahonso'z* (jahonni kuydiruvchi) kabi kalimalar mavjud. Masalan, Ogahiy:

Ogahiy, dilso'z nazmingni eshitsa ahli ishq,
Bo'ynig'a ta'vizdek aylarlar ash'oringni band.

Yoki Fuzuliydan:

Yondurub jonim jahonso'z etma barqi ohimi,
Osmon, xurshidi raxshoning kerakmasmu sango.

So'z mumtoz o'zbek adiblari tilida ushbu ma'noda ko'pincha yasama so'zning tarkibiy qismi, ba'zan esa mustaqil holda ishlatilgan. Masalan, Ogahiyning quyidagi baytida uning mustaqil holatda ishlatilganini ko'ramiz:

Bu na zulm ediki raqib bazmida mayli aysh etasan mudom,
G'ami furqating o'ti ichra bizga nasib so'z-u go'doz etib.

Demak, Alisher Navoiyning mashhur qit'asidagi

Biri mo'jiz bayonlig` sohiri Hind,
Ki ishq ahlin o`rtagay so'z-u holi.

Bu baytda so'zni har ikkala ma'noda ham tushunish mumkin. Chunki bu o'rinda "o'rtamoq" (yoqmoq) va "yonish" ma'nosidagi so'z tanosub hosil qilgan.

So'z ustalarining so'z borasidagi hamfikrligini yana boshqa ko'plab misollarda ham ko'rish mumkin.

Bu buyuk ijodkorlar asarlarining ajib xislati shundan iboratki, ularda muayyan millatning tili butun jozibasi bilan namoyon bo'ladi. Bu asarlar adabiy til

me`yorlarini mustahkamlabgina qolmay, balki uning boyishi, yanada sayqallanishi, ta`sir doirasining kengayishiga ham sezilarli turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o`g`li Ogahiy. Asarlar. Olti tomlik. Birinchi tom. – Toshkent: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1971.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. O`n besh tomlik. O`n to`rtinchi tom. – Toshkent, 1967. 15-16-b.
3. Ibrohimov S., Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug`ati. – Toshkent: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1972. 759-b.